


**Jondor tuman Axborot-kutubxona markazi.
Axborot-bibliografiya xizmati**



“Chibirdon ota ziyoratgohi ”.

(Jondorning qadimiy qadamjosi tarixi haqida)

Yo'l ko'rsatkich.

Jondor-2026.

So'z boshi.

Buxoroning ko'xna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma'no bor. Bu yerdagi qadimiy obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlari, o'lmas an'analari asrlar osha yashab kelmoqda.

Sh. Mirziyoev

Mustaqillik sharofati ila O'zbekiston obod bo'layotir. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Yurt obodligi ko'ngil obodligidan boshlanadi." Ko'ngil obodligi esa o'zligini, o'tmishini, qadr-qimmatini anglash, buyuk ajdodlar merosiga e'tiqod, e'tibor va hurmat degani. To ko'ngil obod bo'lmas ekan, yurt obod bo'lmas. Ko'ngil larni obod etguvchi xilqat esa bu ma'rifat, ma'naviyat, ilmdir. Istiqloldan keyin tarixiy qadamjolar, buyuk o'tmishdoshlarimiz mangu xobgoxlari-maqbarayu avliyolar obod bo'lmoqda. Imom al-Buxoriy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Qizbibi xilxonalari, ularga tutash masjidu madrasalar xalqimizning muborak ziyoratgohiga, ular merosiga aylanib bormoqda. Turonzamin, qolaversa Buxoroyi sharif dovrug'ini olamga yoyishda, Jondor hududidagi qadimda gullab yashnagan shaharu qishloqlar, allomayu avliyolarning ham o'z o'rni bor.

Jondor hududida joylashgan Varaxsha, Xunbun-Shahri Islom, Torob, Romush, Bibi Mag'sumai Pok tepaliklari eramizdan oldingi IV-VI asrlarda bunyod etilganligi ko'plab tarixiy asarlarda keltirilganki, bundan shu hududda odamlarning yarim va to'la o'troqlashishi, dastlabki manzilgohlar paydo bo'lishi va shaharsozlik rivojlanish jarayoni yanada qadimiyligini anglatadi. Birgina Varaxsha shahri ulug'vorligi va

obodonligi bilan Sharqu G'arbni lol qoldirgan. Bu qal'adagi saroy, ko'shk, miniralar, savdo va hunarmandchilik rastalari, devoriy suratlar, ganj va bronzadan yasalgan haykalchalar o'tmishdoshlarimizning noyob madaniyati, san'ati va turmush tarzini belgilab turadi. Bunday yuksak baho Torob, Romush, Xunbun-Shahri Islom, Bibi Mag'sumai Pok tepaliklari va ularda yashab o'tgan ajdodlarimizga ham yarashiqlidir.

“Chibirdon ota ziyoratgohi”.

Chibirdon ota ziyoratgohi Qorako'l bilan Jondor tuman-larining kengliklari tutash hududda joylashgan. Uning ilk nomi Amdiza bo'lgan. O't-mish va hozirgi zamon tarix-chilarining yozganlariga ko'ra, bu yerda X - XII asrlarda so'g'dcha “Suv bo'yidagi shahar” ma'no-sini anglatuvchi Amdiza nomli shaharcha mavjud bo'lgan. O'tgan asrning 70-80 yillarida shu hududda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar bu ma'lumotda asos borligini, XIV-XV asrlarda ham Chibirdon ota ziyoratgohi atrofida aholi yashovchi manzil bo'lganligini, bu yerda g'isht pishirish yo'lga qo'yilganligini isbotlaydi. 1986 yilda o'tkazilgan qazishmalar ma'lumotlari esa bu yerdan zardushtiylar – otashparastlarga xos marhumlar ko'miladigan ostadonlar topilganligini aniqlaydi, bu esa mazkur joyda o'tmishda zardushtiylarning xilxonasi bo'lganligini ko'rsatadi.

Ziyoratgoh yerdan taxminan 9 metr balandlikda. Bu tabiiy tepalik Jondor tuman markazidan 30 km uzoqlikda joylashgan. Keyinchalik bu yerda so'g'd o'tmishdoshlarimiz yashagan. Ularning kasb-korlari chorvachilik, ovchilik, baliqchilik, qamishdan savat, bo'yra, dar-pardalar to'qish bo'lgan. Dehqonchilik bilan band bo'lganlar ham ko'pchilikni tashkil etgan. Bugun katta qabristonni tashkil etgan joy otashparastlarning kenti

bo'lganligi o'tmishdan ma'lum. Kent ahli chorva boqib, quduq, choh, suv xazinasi tiklab, yirik shoxli mol ham boqganlar. Ro'zg'orga kerak bo'ladigan idishlarni yog'och, tosh, poliz maxsulotlaridan yasaganlari kishining havasini keltiradi. Qovoq, oshqovoq, tomosho kadilardan esa suv, yog', sut, qatiq idishlari tayyorlab mushkullarini oson qilganlar. Polizda yetishtirilgan qovoqlardan ishlov berish orqali tayyor-langani idishlar sut, qatiq ivitishda qo'l kelgan.

Manzil: Buxoro viloyat Jondor tuman Qadimgi Poykent shahridan 12 km janubi-g'arbda

Adabiyotlar.

Ғайбуллаев, Саъдулла. Қумликлар бағрига яширинган тилсимлар...[Матн]: мақола ва тадқиқот учун тезислар / С. Ғайбуллаев, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. - 160 б.

Ғайбуллаев, Саъдулла. Чибирдон ота - қумликлар бағридаги маъво [Матн] / С. Ғайбуллаев. - Тошкент: Lesson Press нашриёти, 2022. - 76 б.

Раъно Раҳимова ва бошқалар. Аждодлардан мерос Жондор : Жондор тумани тарихидан илмий оммабоп .- Бухоро : “ Бухоро вилоят босмахонаси ” МЧЖ нашриёти, 2025.-376 б.

Нуруллаев , А. Бухоро тарихида Жондор тумани (ибтидоий даврдан 1920 йилгача) [Матн] / А. Нуруллаев; муҳаррир А. Каландаров ; тузувчи А. Нуруллаев ; таржимон Ғ. Рабиев.- Бухоро : Sadriddin Salim Buxoriy нашриёти , 2024.-344 б.

Davriy nashrlarda chop etilgan maqolalar

Самадова, Х. Чибирдон ота зиёратгоҳи тарих кўзгусида / Х. Самадова // Қоракўл садоси . - 2013 . - 9 май. - Б. 6.

Ғайбуллаев.С. Чибирдон ота қадамжоси : [Чибирдон ота мажмуаси ҳақида] / Саъдулла Ғайбуллаев // Қоракўл садоси. - 2018. - 28 июнь. - В. 4

Ғайбуллаев.С. Қумликлар бағридаги маъво: [Чибирдон ота қабристони тарихи] / Саъдулла Ғайбуллаев // Qorako'l sadosi. - 2024. - 21 окт. - Б. 3

Qurbonov , В. Ziyoratgoh obodonlashtirildi: [Ekologiya va biz] / В, Qurbonov. // Jondor ovozi.- 2022.- 20 okt.

Равшанов, А. Қадамжо чирой очмоқда: [Чибирдон ота тарихий қадамжо ҳақида] / А.. Равшанов. // Jondor ovozi . - 2022. - 3 ноя.